


## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda

2024-yil mart oyi




- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar  
Boshqarmaning elektron pochtasi hamda virtual qabulxona orqali kelib tushqan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar hamda ishonch telefoni

Viloyat statistika boshqarmasiga 2024-yilning yanvar-mart oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 52 ta (o'tgan yilning shu davrida 27 ta) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, murojaatlarning 39 tasi to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 11 tasi boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, "Ishonch telefoni"ga 2 ta murojaat kelib tushgan, virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

### Ulushi-foizda




- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqa statistik ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish yuzasidan
- Topshirilgan xisobotdan nusxa so'rab hamda qayta topshirishni so'rab berilgan arizalar
- Boshqa murojaatlar

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 11 tasi (21,1 foiz) Davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, faoliyat turi, statistik kodlar berish bo'yicha ma'lumotlar so'ragan, 5 tasi (9,6 foiz) Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqa statistik ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, 4 tasi (7,9 foiz) Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, 5 tasi (9,6 foiz) O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish so'rash yuzasidan, 19 tasi (36,5 foiz) Topshirilgan xisobotdan nusxa so'rab hamda qayta topshirishni so'rab berilgan arizalar hamda 8 tasi (15,3 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


### Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Andijon shahridan 16 ta (o'tgan yilning shu davrida 13 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Andijon tumanidan 9 ta, Asaka tumanidan 3 ta, Baliqchi tumanidan 2 ta, Jalaquduq tumanidan 3 ta, Izboskan tumani 8 ta, Oltinko'l tumanidan 4 ta, Qo'rg'ontepa tumanidan 1 ta, Marhamat tumanidan 1 ta, Xo'jaobod tumanidan 1 ta, Shahrixon tumani 1 ta. Boshqa viloyatdan 3 ta murojaatlar kelib tushgan.

## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 39 tasiga chora ko'rildi, tushuntirish berilsh, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha





Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 13,5 foizi (7 ta) jismoniy shaxslar va 86,5 foizi (45 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## **Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
  - (74)224-80-01

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
  - (74)228-29-45

- 
- Pochta manzili – andstat.uz, [andstat@inbox.uz](mailto:andstat@inbox.uz),  
[andstat@exat.uz](mailto:andstat@exat.uz) elektron manziliga murojaat etishingiz  
mumkin.

### **Andijon viloyati statistika boshqarmasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

U. Boynayev  
(74) 228-30-65